*Sifatli ta'lim-yorqin kelajak*
*ISSN: 3060-4761*

*TerDPI ILMIY XABARNOMASI*
*SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI*
*НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

*www.xabarnoma.terdpi.uz*

**UDK: 37.013.73:808.5**
**ORCID: 0000-0002-2752-2656**

# NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK KO‘NIKMALARI – PEDAGOGIK MAHORAT OMILI SIFATIDA

**Soatova Rayxona Sadriddin qizi**
**Termiz davlat pedagogika instituti**
**Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti**
**pedagogika yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.**
**E-mail: rayhonasoatova@gmail.com.**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalarining pedagogik mahoratni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, ovoz balandligi, tembri, intonatsion boyligi, so‘z zaxirasi, talaffuz aniqligi va nutqning mantiqiy hamda ta’sirchan tuzilishi samarali ta’limning asosiy determinantlari sifatida talqin qilinadi. Maqolada notiqlik san’ati o‘quvchilarga bilim yetkazish vositasidan tashqari, ularda motivatsion faollikni oshirish, ijobiy emotsional muhit yaratish, shaxslararo ishonchni mustahkamlash va auditoriya bilan interaktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish mexanizmi sifatida ham yoritiladi. Shuningdek, nutq texnikasini rivojlantirish bo‘yicha maxsus logopedik va psixologik mashg‘ulotlar, teatr pedagogikasiga oid amaliy metodlar, mimika va tana tilidan strategik foydalanish, shuningdek, pauza va tempning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. O‘qituvchining shaxsiy nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi, professional imidjini shakllantirish jarayonidagi psixolingvistik omillar ham keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim tizimida nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning ijtimoiy-madaniy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi fundamental pedagogik kompetensiya ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** nutq texnikasi, notiqlik san’ati, pedagogik mahorat, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, psixolingvistika, auditoriya bilan ishlash, ovoz balandligi, tana tili, intonatsiya, motivatsiya, ta’lim sifati.

# SPEECH TECHNIQUES AND ORATORY SKILLS AS A FACTOR OF PEDAGOGICAL MASTERY

**Annotation:** This scholarly article provides an in-depth examination of the role and significance of speech technique and public speaking skills in the development of pedagogical mastery. Within the context of professional teaching practice, communicative culture, voice projection and timbre, intonational variety, lexical richness, pronunciation clarity, and the logical as well as expressive structure of speech are interpreted as core determinants of effective educational outcomes. Public speaking is analyzed not merely as a vehicle for transmitting knowledge but also as a mechanism for enhancing learner motivation, fostering a positive emotional climate, building interpersonal trust, and facilitating interactive engagement with the audience. The study further discusses specialized logopedic and psychological exercises, the application of theatrical pedagogy techniques, the strategic use of facial expressions and body language, and the pedagogical relevance of pauses and speech tempo. Psycholinguistic factors contributing to the development of a teacher’s

personal speech culture, communicative competence, and professional image are also explored. The findings indicate that, in contemporary education systems, speech technique and public speaking skills constitute a fundamental pedagogical competence that stimulates cognitive activity and promotes the socio-cultural and moral development of learners.

**Key words:** Speech technique, public speaking, pedagogical mastery, communicative competence, communication culture, psycholinguistics, audience engagement, voice projection, body language, intonation, motivation, quality of education.

## ТЕХНИКА РЕЧИ И ОРАТОРСКИЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА

**Аннотация:** В представленной научной статье детально рассматривается роль и значение техники речи и ораторских навыков в формировании педагогического мастерства. В процессе педагогической деятельности культура профессиональной коммуникации, сила и тембр голоса, интонационное разнообразие, богатство словарного запаса, четкость произношения, а также логическая и выразительная структура речи интерпретируются как ключевые детерминанты эффективного образовательного процесса. Ораторское искусство анализируется не только как средство передачи знаний, но и как механизм повышения мотивационной активности обучающихся, создания положительной эмоциональной атмосферы, укрепления межличностного доверия и организации интерактивного взаимодействия с аудиторией. Особое внимание уделяется логопедическим и психологическим упражнениям, применению приемов театральной педагогики, стратегическому использованию мимики и языка тела, а также роли паузы и темпа речи в педагогическом процессе. Рассматриваются психолингвистические факторы, влияющие на формирование личной речевой культуры, коммуникативной компетентности и профессионального имиджа педагога. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в современной системе образования техника речи и ораторские навыки являются фундаментальной педагогической компетенцией, способствующей активизации познавательной деятельности и социально-культурному развитию обучающихся.

**Ключевые слова:** Техника речи, ораторское искусство, педагогическое мастерство, коммуникативная компетентность, культура общения, психолингвистика, работа с аудиторией, сила голоса, язык тела, интонация, мотивация, качество образования.

**KIRISH.** Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati nafaqat uning bilimi va tajribasi bilan, balki nutq texnikasi hamda notiqlik ko'nikmalari bilan ham belgilanadi. Ta'lim jarayonida samarali muloqot o'quvchilarning diqqat-e'tiborini jalb qilish, ularni o'qitish jarayoniga faol jalb etish va bilimlarni ongli ravishda qabul qilishga undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi nutqining aniqligi, mantiqiyligi va ta'sirchanligi pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Notiqlik san'ati qadimdan insoniyat taraqqiyotining muhim jihati bo'lib kelgan. Mashhur faylasuf va notiqlar, jumladan, Aristotel, Sitseron, Demosfen, Al-Farg'oniy va Beruniylar o'z davrida nutq madaniyati va ta'sirchan muloqotning kuchini ta'kidlab o'tganlar. Tarixdan ma'lumki, G'arb va Sharq davlatchiligida notiqlik san'ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davlatida ham notiqlik san'ati — so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan, notiqlik maktablari ochilgan. Amir Temur ham tengi yo'q notiq bo'lgan. "Temur hayoti" asarida Temurning

notiqligiga katta baho berilgan, uning ovozi "jarangdor va shirali..." bo'lganligi haqida yozilgan. Temur nutq so'zlaganda "qarashlari o'tli, yoniq, ovozi yoqimli, jarangdor" bo'lgan. O'tkazgan kengash va qurultoylarda so'zlab, o'z notiqlik san'ati, ya'ni o'zining ta'sirchanligi, mantiq kuchi, ixchamligi, yuksak ma'naviyati, ifodaviy qudrati bilan hammani lol qoldirgan, so'zlagan vaqtida qo'l harakatlari ham g'oyat aniq, mazmunga muvofiq bo'lgan. U o'z nutqlarida muntazamlikka, ma'nodorlik va uzviylikka alohida e'tibor bergan, unda bayon qilingan murakkab fikrlar, dalil va isbotlar bilan yoritilib va oydinlashtirib berilgan[3]. Bugungi kunda ham pedagogika sohasida nutq texnikasini rivojlantirish va notiqlik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, interfaol ta'lim metodlari keng qo'llanayotgan sharoitda o'qituvchining o'z fikrlarini aniq va ravon yetkazishi, o'quvchilar bilan jonli muloqot olib borishi, auditoriyani diqqat bilan tinglashga undashi juda muhimdir.

Pedagogik mahorat nafaqat o'qituvchining dars jarayonini to'g'ri tashkil etishi, balki uning ovozidan, so'zlash uslubidan va ifoda imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish qobiliyati bilan ham bog'liq. To'g'ri ishlatilgan nutq texnikasi dars jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagoglarning notiqlik san'atini o'rganishi, o'z ovoz diapazonini boshqarishi, talaffuz va diksiya ustida ishlashi zaruriy kompetensiyalar sirasiga kiradi. O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ushbu muammoga mustaqillikdan keyingi yillarda jiddiy e'tibor qaratildi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri ─ millat tilidir[2].

Ushbu maqolada nutq texnikasi va notiqlik ko'nikmalarining pedagogik jarayondagi ahamiyati tahlil qilinib, ularni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, pedagoglarning nutq madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan samarali metodlar va mashg'ulotlarga e'tibor qaratiladi. Mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yanada oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Nutq texnikasi va notiqlik san'ati bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonda samarali muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi tushunishni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'nalishda klassik va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilingan bo'lib, ularning har biri pedagogik nutqning turli jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Psixolingvistika va pedagogik notiqlik bo'yicha mutaxassis olim A.A.Leontyev o'qituvchining nutqiy faoliyatini keng tahlil qilib, pedagogik muloqotda nafaqat til birliklari, balki paralingvistik vositalarning (intonatsiya, pauza, jest va mimika) ahamiyatini ham ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchining ovozi va talaffuzi dars jarayonida o'quvchilar diqqatini jamlash va axborotni samarali yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Nutq texnikasining psixologik va didaktik asoslari bo'yicha tadqiqot olib borgan olim V.A.Kan-Kalik esa pedagogik muloqotning insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qituvchi nutqining samimiyligi va ifodaliligi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Bunga ko'ra, o'qituvchi nutqida mantiqiylik, obrazlilik va emotsionallik muhim o'rin tutadi. Mark Tulliy Sitseron notiqlik san'atida talaffuzning beqiyos ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritar ekan, "Notiq" nomli asarida shunday deb yozadi: "...hatto so'z ne'matidan benasib odamlar ham ifodali, yaxshi talaffuz tufayli

suxandonlik mevasini terganlar, ko‘pgina suxanoro odamlar esa, yomon talaffuz tufayli no‘noq hisoblanganlar. Shuning uchun ham, Demosfen birinchi, ikkinchi va hatto uchinchi ish ham talaffuzdir, degan. Va agar talaffuzsiz suxandonlik yo‘q ekan, talaffuz suxandonliksiz ham shunday kuchga ega ekan, u holda so‘zsiz (albatta) notiqlik san’atida uning ahamiyati ulkandir”[4]. Shuningdek, notiqlik san’ati bo‘yicha Sharq mutafakkirlari ham muhim fikrlar bildirgan. Xususan, Al-Farg‘oniy va Beruniy ilmiy munozaralar va bilimlarni yetkazish usullariga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, ularning qarashlari bugungi pedagogika uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini ta’kidlab, notiqlik san’atining ildizlari bo‘lmish grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojlarning hosilasidir degan g‘oyani ilgari surgan[2]. Bundan tashqari, Ibn Sino ham o‘z asarlarida tibbiy ta’lim jarayonida nutqning mantiqiy va ta’sirchan bo‘lishi zarurligini ta’kidlagan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik faoliyatda nutq texnikasini rivojlantirish va notiqlik ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat kasbiy mahoratni oshirishga, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytirishga xizmat qiladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

O‘qituvchining nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalari uning umumiy pedagogik kompetensiyasining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ta’lim materiallarini aniq va mantiqiy yetkazish hamda auditoriyani jalb etish kabi omillarda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, notiqlik mahorati yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar dars jarayonida yuqori darajadagi kognitiv faollikni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Kuzatuvlar va eksperimental tahlillar natijasida o‘qituvchining paralingvistik omillardan (intonatsiya, pauza, tempo, mimika, jestlar) foydalanish darajasi va o‘quvchilarning materialni qabul qilish sifati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Xususan, emotsional jihatdan yetarli darajada boyitilgan nutq monoton nutqqa nisbatan auditoriyaning diqqatini uzoqroq ushlab turishi hamda informatsion tarkibni samarali o‘zlashtirishga yordam berishi isbotlandi. Aksariyat pedagoglar o‘z nutq texnikasini rivojlantirish zaruriyatini tan olishsa-da, amaliy jihatdan bu borada muntazam ish olib bormasliklari kuzatiladi. Xususan, fonetik jihatdan to‘g‘ri talaffuz, nafas nazorati, diksiya va artikulyatsiya kabi omillarga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi, bu esa pedagogik muloqot samaradorligini pasaytirishi mumkinligi aniqlangan.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rolli o‘yinlar, debatlar, interaktiv seminarlar va muhokama klublari kabi metodlarning muntazam qo‘llanilishi pedagoglarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, ijtimoiy-psixologik treninglar, kreativ nutq mashg‘ulotlari va sahna nutqi elementlarini o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Notiqlik san’atiga ega bo‘lgan pedagoglar o‘quv jarayonida nafaqat axborotni samarali yetkazish, balki ijtimoiy-emotsional muhitni boshqarish, auditoriyani faollashtirish va pedagogik kommunikatsiya jarayonini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalarini shakllantirish pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalari pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib,

o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi muhim omillar qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aniq va ravon nutq, intonatsiya, pauza va talaffuz kabi elementlar pedagogning o‘quvchilarga ta’sirini oshiradi hamda o‘zaro muloqot samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, notiqlik mahorati o‘qituvchining auditoriya bilan aloqasini mustahkamlashda va mavzuni tushunarli yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida nutq texnikasi va notiqlik san’atining pedagogik jarayondagi o‘rni bo‘yicha turli yondashuvlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda notiqlik san’ati faqat nutq texnikasi bilan cheklanmay, balki o‘qituvchining emotsional intellekti va auditoriyani boshqarish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Bizning tadqiqot natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi va o‘qituvchi nutqining aniqligi, ifodaliligi va ta’sirchanligi uning pedagogik mahoratini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Nutq texnikasining nazariy va amaliy ahamiyatini inobatga olgan holda, pedagoglarni tayyorlash jarayonida notiqlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy ta’lim tizimida ushbu mahoratni rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar, seminarlar va amaliy treninglar joriy etilishi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, ular kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida baholanishi mumkin. Jumladan, o‘qituvchilarning nutq texnikasi va notiqlik mahoratini baholash mezonlari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish talab etiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda nutq texnikasining psixolingvistik va sotsiokulturni omillar bilan bog‘liqligi chuqurroq o‘rganilishi lozim. Shu asosda, o‘qituvchi nutqining texnik jihatlari va notiqlik san’atining o‘zaro uyg‘unligi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu masalani chuqur tadqiq etish va ilmiy-amaliy jihatdan rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutq texnikasi va notiqlik ko‘nikmalari pedagogik mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik nutqning ta’sirchanligi o‘quv jarayonining sifatini oshirish bilan birga, talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Zamonaviy ta’lim jarayonida notiqlik san’ati nafaqat muloqot vositasi, balki pedagogik ta’sir o‘tkazish mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihatlardan biri shundaki, nutqning mantiqiyligi, intonatsion jihatdan boyligi va emotsional ifodaliligi o‘qituvchi va auditoriya o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, pedagogik faoliyatda nutq texnikasini rivojlantirish maxsus mashg‘ulotlar, treninglar va amaliy seminarlar orqali tizimli yo‘lga qo‘yilishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘qituvchilarning notiqlik mahoratini yanada chuqurroq tahlil qilish, uning pedagogik jarayon bilan bog‘liqligini aniqlash hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida notiqlik kompetensiyasini oshirish metodikasini ishlab chiqish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu ilmiy yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” to‘grisidagi 31.12.2019-yil 1059-son qarori.
2. Xoliqov A. (2010). Pedagogik mahorat. Toshkent.
3. M.I.Israil, L.I.Tashmuxamedova. (2019). Notiqlik san’ati. Toshkent.
4. Sitseron. (2007). Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). Toshkent.
5. Ahmedova, M. E. (2011). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent.
6. Xodjayev B. (2017). Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.
7. Bekmirzayev N.(2008). Notiqlik san’ati asoslari: O‘quv qo‘llanma. Toshkent.
8. Qudratov T. (1993). Nutq madaniyati asoslari. Toshkent.
9. Husayn Voiz Koshifiy. (1994). Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi). Toshkent.
10. Ortiqov A. (2002). Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent.